

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: ANʼANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QOʻLLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срожиддинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulugʻbek Abdulazizovich	
IJTIMOIIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA “QAMRAB OLINMAGAN OʻRTA QATLAM” MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Joʻraqulovich	



IJTIMOIIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI VA “QAMRAB OLINMAGAN O’RTA QATLAM” MUAMMOSI

Bafoev Farrux Jo’raqulovich

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Ijtimoiy himoya milliy agentligining Navoiy viloyati boshqarmasi

Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishini monitoring qilish sho‘basi boshlig‘i

NDKTU mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-0655-3486

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish mexanizmlari hamda “qamrab olinmagan o‘rta qatlam” (missing middle) muammosi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida xalqaro tashkilotlar, jumladan ISSA, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti materiallari asosida ijtimoiy himoya tizimida qamrov bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etishga qaratilgan institutsional yondashuvlar o‘rganilgan.

Maqolada norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi qatlamlari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hamda mavsumiy ishchilar ko‘plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimidan tashqarida qolayotgan asosiy guruhlar sifatida ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishning bosqichma-bosqich mexanizmlari, ma‘muriy islohotlar va moliyaviy instrumentlarning samaradorligi baholangan.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, qamrov darajasini oshirish hamda aholining turli qatllarini ijtimoiy himoya tizimiga keng jalb etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta‘minot, qamrab olinmagan o‘rta qatlam, norasmiy iqtisodiyot, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya qamrovi.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the mechanisms for expanding the coverage of the social protection system and examines the problem of the “missing middle.” The study is based on materials from international organizations such as the International Social Security Association (ISSA), the World Bank, and the International Labour Organization (ILO), which are used to analyze coverage gaps in social protection systems and the institutional approaches aimed at addressing them.

The article highlights that workers in the informal sector, self-employed individuals, and seasonal workers constitute major groups that remain outside social protection systems in many countries. Furthermore, the effectiveness of step-by-step mechanisms for expanding social protection coverage, as well as administrative reforms and financial instruments, is evaluated.

The findings of the study make it possible to develop practical recommendations for improving the social protection system, expanding its coverage, and involving different segments of the population in social protection programs.

Key words: social protection, social security, missing middle, informal economy, social insurance, social policy, social justice, social protection coverage.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы механизмы расширения охвата системы социальной защиты, а также проблема так называемого «недоохваченного среднего слоя» (missing middle). В рамках исследования на основе материалов международных организаций, включая Международную ассоциацию социального обеспечения (ISSA), Всемирный банк и Международную организацию труда, изучены проблемы охвата системой социальной защиты и институциональные подходы к их решению.

В статье показано, что работники неформального сектора, самозанятые лица и сезонные работники во многих странах составляют основную группу населения, не охваченную системой социальной защиты. Кроме того, проведена оценка поэтапных механизмов расширения охвата социальной защиты, а также эффективности административных реформ и финансовых инструментов.

Результаты исследования позволяют разработать практические предложения и рекомендации по совершенствованию системы социальной защиты, расширению её охвата и вовлечению различных слоёв населения в систему социальной защиты.

Ключевые слова: социальная защита, социальное обеспечение, недоохваченный средний слой (missing middle), неформальная экономика, социальное страхование, социальная политика, социальная справедливость, охват социальной защиты.



KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimi davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy himoya mexanizmlari aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda aholining ayrim qismi ijtimoiy himoya tizimi qamrovidan yetarli darajada foydalanmayotgani kuzatiladi.

Ayniqsa, norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi aholi, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, mavsumiy ishchilar hamda kichik tadbirkorlar ko'p hollarda ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan to'liq qamrab olinmaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur guruh "qamrab olinmagan o'rta qatlam" (missing middle) deb ataladi. Bu guruh ijtimoiy yordam olish uchun yetarli darajada kambag'al hisoblanmasligi, biroq ijtimoiy sug'urta tizimida to'liq ishtirok etish uchun yetarli darajada barqaror daromadga ega emasligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur holat ayrim sharoitlarda ijtimoiy himoya tizimi samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi hamda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilish hamda yangi institutsional mexanizmlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish mexanizmlarini tahlil qilish, "qamrab olinmagan o'rta qatlam" muammosining iqtisodiy mohiyatini o'rganish hamda xalqaro tajriba asosida mazkur muammoni hal etish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy himoya tizimi va uning iqtisodiy ahamiyati iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Xususan, T.X. Marshall ijtimoiy huquqlar konsepsiyasini ishlab chiqib, ijtimoiy himoya mexanizmlari fuqarolik huquqlarining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy davlat fuqarolarga minimal ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash orqali jamiyatda tenglik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya tizimini institutsional jihatdan shakllantirish masalalari U. Beveridj tomonidan ham tadqiq etilgan. Uning mashhur "Social Insurance and Allied Services" asarida ijtimoiy sug'urta tizimini aholini ijtimoiy xavflardan himoya qilishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) hamda Jahon banki tadqiqotlarida norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi aholi qatlamining ijtimoiy himoya tizimidan yetarli darajada foydalanmasligining asosiy omillari sifatida institutsional to'siqlar, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi hamda ma'muriy jarayonlarning murakkabligi qayd etilgan.

Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasi (ISSA) tadqiqotlarida esa ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish uchun bosqichma-bosqich institutsional mexanizmlarni joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Mazkur mexanizmlar aholining turli toifalarini aniqlash, ijtimoiy xizmatlar tizimini tahlil qilish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, institutsional tahlil hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishga oid metodologik yondashuvlar tadqiqotning nazariy asosi sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot doirasida ijtimoiy himoya tizimida qamrov bilan bog'liq masalalarni aniqlash, aholining turli toifalarini tahlil qilish hamda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan institutsional mexanizmlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishning bosqichma-bosqich modeli ham tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi uning qamrov darajasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Ijtimoiy himoya tizimi aholining keng qatlamlarini qamrab olgan holdagina kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash vazifalarini samarali bajarishi mumkin. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda aholining ayrim qismi ijtimoiy himoya tizimi bilan yetarli darajada qamrab olinmayotgani kuzatiladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur guruh "qamrab olinmagan o'rta qatlam" (missing middle) deb ataladi.

"Qamrab olinmagan o'rta qatlam" tushunchasi asosan mehnat bozorida norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi guruhlarini anglatadi. Bu guruhga kam daromadli o'zini o'zi band qilgan shaxslar, mavsumiy ishchilar, qishloq xo'jaligi mehnatkashlari, kichik tadbirkorlar hamda vaqtinchalik ish bilan band bo'lgan shaxslar



kiradi. Ular ko'p hollarda ijtimoiy yordam dasturlariga kiritilmaydi, chunki rasmiy mezonlarga ko'ra kambag'allar qatoriga kiritilmaydi. Shu bilan birga, ularning daromadlari barqaror bo'lmaganligi sababli ijtimoiy sug'urta tizimida to'liq ishtirok etish imkoniyati ham cheklangan bo'ladi. Natijada mazkur guruh ijtimoiy himoya tizimining ikki asosiy mexanizmi — ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug'urta tizimlari o'rtasida qolib ketadi.

Ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini baholashda aholining turli guruhlari mazkur tizim bilan qamrab olish darajasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat bozoridagi institutsional farqlar va daromad manbalarining turlicha bo'lishi ijtimoiy himoya mexanizmlariga kirish imkoniyatlarida ham sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi aholi guruhlari ko'pincha ijtimoiy yordam dasturlari va ijtimoiy sug'urta tizimlari o'rtasidagi institutsional bo'shliqda qolib ketadi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoya tizimida aholining turli guruhlari qay darajada qamrab olinganligini tizimli ravishda tahlil qilish muhim hisoblanadi. Quyidagi jadvalda mehnat bozoridagi asosiy aholi guruhlari, ularning daromad manbalari hamda ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan qamrov darajasi tahlil qilingan.

1-jadval. Ijtimoiy himoya tizimida aholi guruhlarning qamrov darajasi


Aholi guruhi	Daromad manbai	Ijtimoiy yordam dasturlari	Ijtimoiy sug'urta tizimi	Qamrov darajasi
Kambag'al aholi	Davlat yordami	To'liq qamrab olingan	Qisman	Yuqori
Rasmiy sektor xodimlari	Rasmiy ish haqi	Qisman	To'liq	Yuqori
Norasmiy sektor xodimlari	Norasmiy daromad	Kam qamrab olingan	Kam qamrab olingan	Past
O'zini o'zi band qilgan shaxslar	Mustaqil faoliyat	Kam	Ixtiyoriy	O'rtacha
Kichik tadbirkorlar	Tadbirkorlik	Kam	Ixtiyoriy	O'rtacha

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy himoya tizimida aholining turli guruhlari turlicha darajada qamrab olingan. Xususan, kambag'al aholi davlat ijtimoiy yordami orqali nisbatan keng qamrab olingan bo'lsa, rasmiy sektorda faoliyat yurituvchi xodimlar ijtimoiy sug'urta tizimi orqali barqaror ijtimoiy himoya mexanizmlariga ega hisoblanadi. Biroq mehnat bozorining muhim qismini tashkil etuvchi norasmiy sektor xodimlari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda kichik tadbirkorlar ijtimoiy himoya tizimi bilan nisbatan past darajada qamrab olingani kuzatiladi. Bu holat mazkur aholi guruhlarning daromad manbalari barqaror emasligi, ijtimoiy sug'urta badallarini muntazam to'lash imkoniyatining cheklanganligi hamda institutsional mexanizmlarning yetarli darajada moslashmaganligi bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, mehnat bozoridagi mazkur guruhlar ijtimoiy yordam dasturlari va ijtimoiy sug'urta tizimlari o'rtasidagi institutsional bo'shliqda qolib ketishi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda bu holat "qamrab olinmagan o'rta qatlam" (missing middle) muammosi sifatida tavsiflanadi. Mazkur guruh ijtimoiy himoya tizimining mavjud mexanizmlari bilan to'liq qamrab olinmagani sababli ularning iqtisodiy xavflarga nisbatan zaifligi yuqori bo'lib qoladi.

Natijada ijtimoiy himoya tizimining umumiy samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi hamda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi ehtimoli yuzaga kelishi mumkin. Shu bois ko'plab mamlakatlarda norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilish, moslashuvchan sug'urta badallari mexanizmlarini joriy etish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish orqali ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishga qaratilgan institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimida "qamrab olinmagan o'rta qatlam" muammosi asosan mehnat bozoridagi institutsional farqlar hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarining tuzilishi bilan bog'liq. Aholining ayrim guruhlari ijtimoiy yordam dasturlariga kirish uchun yetarlicha kambag'al hisoblanmasligi, biroq ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etish uchun barqaror daromad manbalariga ega emasligi sababli mazkur ikki mexanizm o'rtasida qolib ketadi. Mazkur jarayonning iqtisodiy mohiyati va institutsional xususiyatlari quyidagi 1-rasm orqali ifodalangan



1-rasm. Ijtimoiy himoya tizimida “qamrab olinmagan o’rta qatlam”ning shakllanish mexanizmi

Manba: muallif ishlanmasi

Rasmda ko’rsatilganidek, mehnat bozorida aholining iqtisodiy faolligi ikki asosiy sektor — rasmiy va norasmiy sektorlarga ajraladi. Rasmiy sektorda faoliyat yurituvchi xodimlar odatda ijtimoiy sug’urta tizimi orqali ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan ta’minlanadi. Shu bilan birga, kam ta’minlangan aholi guruhlari davlat ijtimoiy yordam dasturlari orqali qo’llab-quvvatlanadi.

Biroq mehnat bozorining muayyan qismi, xususan, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi mazkur ikki tizim o’rtasida qolib ketishi mumkin. Bu guruh barqaror daromad manbalariga ega bo’lmagani sababli ijtimoiy sug’urta tizimiga to’liq jalb qilinmaydi, shu bilan birga ular kambag’al aholi toifasiga kiritilmaganligi sababli ijtimoiy yordam dasturlaridan ham foydalanmaydi. Natijada ular iqtisodiy xavflar — ishsizlik, kasallik yoki daromadning keskin kamayishi kabi holatlarda ijtimoiy himoya mexanizmlaridan yetarli darajada foydalana olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish uchun norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini qamrab olishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda moslashuvchan ijtimoiy sug’urta sxemalarini joriy etish, badal to’lash tizimini soddalashtirish hamda raqamli boshqaruv instrumentlarini keng qo’llash ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ko’plab mamlakatlarda norasmiy sektor mehnat bozorining katta qismini tashkil etadi. Shu sababli mazkur aholi qatlamini ijtimoiy himoya tizimiga jalb qilish ijtimoiy siyosatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Prezantatsiya materiallarida ham ta’kidlanganidek, ushbu guruh mehnat bozorining muhim qismini tashkil qilib, ijtimoiy himoya tizimidagi qamrov bo’shliqlari aynan shu qatlamda eng kuchli namoyon bo’ladi.

Ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish uchun xalqaro amaliyotda bosqichma-bosqich institutsional yondashuv qo’llaniladi. Xalqaro ijtimoiy ta’minot assotsiatsiyasi (ISSA) tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga ko’ra, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinishi lozim bo’lgan aholi guruhlari aniqlanadi. Keyingi bosqichda mavjud ijtimoiy xizmatlar va imtiyozlar tahlil qilinib, ijtimoiy himoya tizimining iqtisodiy modeli shakllantiriladi. Shu bilan birga, ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish hamda axborot-kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqish ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Xalqaro tajriba ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish bo'yicha turli institutsional mexanizmlar mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, lordaniyada ijtimoiy sug'urta tizimi qamrovini kengaytirish maqsadida ijtimoiy sug'urta qonunchiligi qayta ko'rib chiqilgan va ijtimoiy sug'urta ishtirokchilari doirasi kengaytirilgan. Natijada ish beruvchilar, uy bekalari, yakka tartibda ishlovchilar, qishloq xo'jaligi ishchilari hamda norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi shaxslar ham ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilingan.

Shuningdek, Braziliya tajribasi ham ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Braziliya milliy ijtimoiy ta'minot tizimi mehnat bozorini bir nechta toifalarga ajratgan holda turli ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etgan. Xususan, mustaqil faoliyat yurituvchi shaxslar uchun moslashuvchan sug'urta badallari tizimi joriy etilgan bo'lib, ular o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda badal miqdorini tanlash imkoniyatiga ega. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish faqat moliyaviy resurslarni oshirish orqali emas, balki institutsional islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish orqali ham amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoya tizimidagi huquqiy, moliyaviy va ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish aholining turli qatlamlarini mazkur tizimga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, soddalashtirilgan badal mexanizmlari, moslashuvchan ijtimoiy sug'urta sxemalari hamda rasmiylashtirishga rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlar ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirishda samarali vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining turli guruhlarini ijtimoiy himoya tizimiga jalb qilish ijtimoiy adolatni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi uning aholining keng qatlamlarini qamrab olish darajasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Maqolada amalga oshirilgan tahlillar natijasida mehnat bozorida institutsional farqlar, norasmiy sektorning keng tarqalganligi hamda daromad manbalarining barqaror emasligi ijtimoiy himoya tizimida "qamrab olinmagan o'rta qatlam" (missing middle) muammosining shakllanishiga sabab bo'layotgani aniqlandi. Ushbu guruh ijtimoiy yordam dasturlari va ijtimoiy sug'urta mexanizmlari o'rtasida qolib ketgani sababli iqtisodiy xavflardan yetarli darajada himoyalangan aholi qatlamini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribada ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish institutsional islohotlar, moslashuvchan ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish hamda raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilish, sug'urta badallari tizimini soddalashtirish va davlat tomonidan rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni qo'llash ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi aholi uchun moslashuvchan va soddalashtirilgan ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish;
- o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda kichik tadbirkorlar uchun ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta dasturlarini kengaytirish;
- ijtimoiy himoya xizmatlarini raqamlashtirish va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali yordamning manzilliligini oshirish;
- norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish hamda mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga qaratilgan iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish.

Umuman olganda, ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish aholining ijtimoiy xavflarga nisbatan barqarorligini oshirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barr, N. (2012). *Economics of the Welfare State* (5th ed.). Oxford University Press.
2. Beveridge, W. (1942). *Social Insurance and Allied Services*. London: HMSO.
3. International Labour Organization. (2021). *World Social Protection Report 2020–2022: Social Protection at the Crossroads*. Geneva: ILO.
4. International Social Security Association. (2019). *Guidelines on the Extension of Social Security Coverage*. Geneva: ISSA.
5. Marshall, T.H. (1950). *Citizenship and Social Class and Other Essays*. Cambridge University Press.



6. World Bank. (2022). Reshaping Social Protection Systems: Global Lessons for Expanding Coverage. Washington, DC: World Bank.
7. Базарова, Г.Г. Социальная защита населения как главный фактор общественного благосостояния в Узбекистане // Социосфера. — 2019. — №2. — С. 120–123.
8. Хусанова, Х.Т.; Таджиева, С.Х. Адресная социальная защита в Узбекистане: эволюция развития и современность // Молодой учёный. — 2013. — №2 (44). — С. 290–293.
9. Нарбаева, Т.К. Модель повышения эффективности системы социальной защиты женщин в Узбекистане // Социальные исследования. — 2022. — №3. — С. 102–109.
10. Atamuradov, Sh.A. (2021). Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini ventchur fondlari orqali moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, 8.
11. Atamuradov Sherzod Akramovich (2022). Korxonaning innovatsion faoliyatini strategik rejalashtirishda boston consulting group (bcg) matritsasidan foydalanish. Экономика и финансы (Узбекистан), (12 (160)), 43-50. doi: 10.34920/EIF/VOL_2022_ISSUE_12_6
12. Atamuradov Sherzod Akramovich (2023). Jahon amaliyotida ventchur kapitali bozorining tashkiliy subyektlari. Ekonomika i finansy (Uzbekistan), (1 (161)), 58-65. doi: 10.34920/EIF/VOL_2023_ISSUE_1_8
13. Atamuradov Ш. (2023). Financing of innovative projects through venture funds and the types of risk involved in it. Economics and Innovative Technologies, 11(1), 24–35. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a3



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>